

Yakka tartibda uy-joy yoki ko’p kvartirali uylardan kvartira sotib olish uchun kredit ajratish bo’yicha shartnomaning UMUMIY SHARTLARI

(keyingi o’rinlarda “umumiy shartlar/shartnoma” deb yuritiladi)

(qayta moliyalashtirish)

1. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq Bank Kredit oluvchiga shartnomada ko’rsatilgan miqdorda va shartlarda, uy-joy/kvartirani sotib olish uchun kredit berish, Kredit oluvchi esa olingan pul mablag’larini belgilangan muddatda Bankka qaytarish va pul mablag’laridan foydalanganlik uchun foizlarni to’lash majburiyatini oladi.

1.2. Mashkur shartnomaga asosan kredit mablag’i uy – joy/kvartira sotuvchining (bank kartasiga) yoki pudratchining hisobvarog’iga nadq pulsiz shaklda pul o’tkazish yo’li bilan o’tkaziladi.

1.3. Kredit mazkur shartnomani ilovasi hisoblangan Alohida shartlarda beriladi.

1.4. Ajratilgan kredit qayta moliyalashtirgunga qadar (6-12 oy) davomida oylik to’lovlari 30 kundan o’tkazib yuborilgan holatlarda kredit foiz stavkasi bank o’z mablag’lari foiziga o’zgartiriladi va sog’lomlashtirish davri bank o’z mablag’i foiz stakasida foiz hisoblanadi.

2. Shartnoma bahosi va hisob-kitob tartibi.

2.1. Dastlab bank o’z mablag’i hisobidan ajratiladi, kelgusida kredit shartlari O’zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi AJ tomonidan berilayotgan resurs shartlariga nisbatan o’zgaradi. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar ushbu shartnomada belgilangan nominal stavkada kredit qoldig’iga nisbatan kunlik hisoblab boriladi.

2.2. Kredit qarzdorlikni qaytarish shartnomaning ajralmas qismi bo’lgan qaytarish jadvali asosida amalga oshiriladi.

2.3. Kredit va unga hisoblangan foiz (jarima,penya)larni qaytarish Kredit oluvchi/Birgalikda kredit oluvchining istagiga ko’ra, bankning avtoto’lov xizmati, bank kartasi, naqd pul, pul o’tkazish yo’li bilan va qonunchilik hujjatlariga zid kelmaydigan boshqa to’lov usullari bilan amalga oshiriladi. Bunda, kelib tushgan mablag’lar agar mablag’ kredit qarzdorligini qaytarish grafigi bo’yicha muddati o’tgan qarzdorlikni (tani, fozi) qoplash uchun yetarli bo’lsa birinchi navbatda neustoyka, muddati o’tgan kredit foizi, muddati o’tgan kredit tani, muddatli kredit foizi so’ngra muddatli kredit tanini so’ndirishga yo’naltiriladi. Agar pul mablag’i yetarli bo’lmasa qonunchilikda belgilangan tartibda.

2.5. Agar amalga oshirilgan to’lov summasi kredit oluvchiga ajratilgan kredit bo’yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo’lmasa, kredit oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

a) asosiy qarz bo’yicha muddati o’tgan qarzdorlik va muddati o’tgan foiz to’lovlari mutanosib ravishda;

b) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo’yicha qarzdorlik;

c) neustoyka(jarima, penya);

d) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog’liq bo’lgan boshqa xarajatlari.

2.6. Haftaning juma kuni hisoblab yoziladigan foizni hisoblashda uch kun — juma, shanba va yakshanba kunlari uchun foizlar hisobga olinadi. Agar joriy oy juma yoki shanba kunida tugaydigan bo’lsa, unda foizlarni hisoblab yozish tegishlicha bir kun yoki ikki kun uchun amalga oshiriladi. Hafta oxirida qoladigan kun (kunlar) uchun foizlar keyingi oyning birinchi ish kunida hisoblab yoziladi. Bayram kunlariga nisbatan ham xuddi shunday jarayon qo’llaniladi.

3. Taraflar majburiyatlari

3.1. Kredit oluvchi/birgalikda kredit oluvchining majburiyatlari.

3.1.1. Kredit va unga hisoblangan foizlarni Alohida shartlarning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvalida belgilangan muddatlarda, to’liq to’lash. **Ajratilgan kredit bo’yicha qayta moliyalashtirish davrida (6-12 oy davomida) oylik to’lovlarni 30 kundan o’tkazmaslik;**

3.1.2. Kreditdan faqat mazkur shartnomada ko’rsatilgan maqsadlarda foydalanish;

- 3.1.3. Kreditdan foydalanish davomida kreditlashning asosiy tamoyillari: muddatlilik, to’lovlilik, qaytarishlik, maqsadlilik va ta’minlanganlikka rioya qilish;
- 3.1.4. Kredit oluvchi tomonidan bankga ma’lum qilgan yoki bank tomonidan keyinchalik aniqlangan, yashash, ro’yxatdan o’tgan manzillariga har qanday xabarlarni pochta aloqa tarmoqlari orqali yoki bank vakillari tomonidan shaxsan kredit oluvchiga, oila a’zolari yoki shu manzilda yashovchi shaxslarga qog’oz shaklida yuborilishi va taqdim qilinishiga hamda kredit oluvchi tomonidan bankka ma’lum qilgan yoki bank tomonidan keyinchalik aniqlangan kredit oluvchining telefon raqamlariga SMS xabarlarini kredit oluvchining shaxsga doir ma’lumotlarini ochiq holda yuborishga o’z roziligini bildiradi;
- 3.1.5. Kredit oluvchi/BKO o’zining ish joyi, yashash joyi, familiyasi, ismi, taqdim qilgan yoki boshqa telefon raqamlari, elektron pochta manzili, ijtimoiy tarmoqdagi manzillari o’zgarganda yoxud mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarilishiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan boshqa holatlar to’g’risida yozma shaklda va o’zi uchun maqbul bo’lgan aloqa kanallari orqali 5 (besh) kun ichida Bankka xabar berish majburiyatini oladi. Kredit oluvchi/BKO tomonidan ushbu majburiyatlarni bajarilmasligi oqibatida o’ziga yoki uchinchi shaxslarga yetkazilishi mumkin bo’lgan yoki yetkazilgan barcha moddiy va ma’naviy zararlar yoxud barcha salbiy holatlar yuzasidan shaxsan mas’ul va javobgar hisoblanadilar;
- 3.1.6. Ipoteka krediti hisobidan sotib olgan kvartirani o’z nomiga egalik huquqi rasmiylashtirilgach, 3 (uch) bank ish kuni ichida ipoteka predmetini yo’qolish va shikastlanish tavakkalchiliklaridan sug’urtalash, belgilangan tartibda kredit ta’minoti sifatida garovga qo’yish, garovni rasmiylashtirish chiqimlarini to’lash;
- 3.1.7. Garov mulkiga shikast yetkazilgan, yaroqsiz holga kelgan, yo’qolgan taqdirda zudlik bilan bankka xabar berish va garov mulkini 10 (o’n) kun ichida yuqori likvidli boshqa mulkka almashtirish;
- 3.1.8. Kreditni qaytarish jadvaliga nisbatan ortiqcha to’langan mablag’ kelgusi davrlarda so’ndirilishi rejalashtirilgan bo’lsa, u holda to’lovni amalga oshirishdan 3 (uch) kun oldin Bankka bu haqida yozma murojaat qilish;
- 3.1.9. Kredit hisobidan xarid qilingan uy-joy/kvartirani but holda saqlanishini ta’minlaydi. Uy-joy/kvartiraning butligi saqlanmaganligi aniqlanganida yoki uy-joy/kvartiraga qasddan shikast yetkazilgan taqdirda, yetkazilgan zarar miqdorini o’z hisobidan yoki garovga qo’yilgan mulk hisobidan to’lash;
- 3.1.10. Kredit hisobiga xarid qilingan uy-joy/kvartira Kredit oluvchi tarafidan Kredit oluvchi va uning oila a’zolari yashashi uchun foydalanilishi lozim. Sotib olingan uy-joy/kvartirani ijaraga berish, uchinchi shaxslarni ro’yxatga qo’yish faqat Bank roziligi bilan amalga oshirish;
- 3.1.11. Bankka kreditdan maqsadli foydalanilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, uy-joy/kvartirani Kredit oluvchiga tegishlilikini tasdiqlovchi hujjat (kadastr hujjati asli yoki nusxasi)ni monitoring uchun taqdim etish;
- 3.1.12. Kredit oluvchi/BKO shartnoma va garov shartnomasi bo’yicha majburiyatlarni bajarishga ta’sir ko’rsatadigan oilaviy holati o’zgarganligi, ish joyi almashtirganligi, daromadlari o’zgarganligi va boshqa ma’lumotlarni o’z vaqtida taqdim etib borishi lozim. Kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda Kredit oluvchi/BKO Bankka o’zining moliyaviy holati haqida yangilangan ma’lumotlarni taqdim etish;
- 3.1.13. Kreditni qaytarish jadvalidan ortiqcha to’langan mablag’ kelgusi davrlarda so’ndirilishi rejalashtirilgan bo’lsa, u holda to’lovni amalga oshirishdan 3 (uch) kun oldin Bankka bu haqida yozma murojaat qilish;
- 3.1.14. Shaxsiy (BKOning xam) bank kartasini Bankning “Avto-to’lov” xizmatiga ulash;
- 3.1.15. Ipoteka krediti hisobiga Bosh bankning ijtimoiy – ekologik xulosada ko’rsatib o’tilgan xolatlardan chetga chiqmagan holda uy-joy/kvartira sotib olish;
- 3.1.16. Garovga oluvchining talabi bilan "Ipoteka to’g’risida"gi qonun talablari asosida garov xati tuzish;

3.1.17. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga yoki vakolatli organlarning ichki qoidalariga muvofiq kredit bitimlarini tuzish, kredit olish, kafil yoki birgalikda kredit oluvchi sifatida ishtirok etish taqiqlangan shaxslar reestrida (ro‘yxatida) turmaslik;

3.1.18. Ushbu shartnoma va qonunchilik hujjatlaridagi boshqa majburiyatlar.

3.2. Bankning majburiyatlari.

3.2.1. Kredit oluvchining huquq va majburiyatlari to’g’risida, shu jumladan kredit berish bilan bog‘liq barcha xarajatlar haqida kredit oluvchiga ishonchli hamda to‘liq axborotni taqdim qilish;

3.2.2. Mazkur shartnomaning 3.1.6 – bandidagi majburiyatlar to‘liq bajarilganidan keyin garov ta’minoti bo‘yicha talab etilgan hujjatlar bankka taqdim etganidan so‘ng 3 (uch) bank ish kuni ichida kredit ajratish;

3.2.3. Olingan kredit uchun kredit oluvchi nomiga ssuda hisob raqamlarni ochish;

3.2.4. Kredit oluvchini kreditni muddatidan ilgari undirish holati va sabablari haqida oldindan xabardor qilish;

3.2.5. Kredit oluvchining tegishli so‘rovi bankda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida kredit oluvchi tomonidan berilgan ariza va kredit oluvchiga kredit berilganligini tasdiqlovchi hujjatni hamda bir ish kuni ichida shartnoma bo‘yicha kredit oluvchi tomonidan majburiyatlari to‘liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etish;

3.2.6. Shartnoma bo‘yicha kredit oluvchidan majburiyatlari bajarilmasligi sabablari, holati, muddati, summalari, tarkibi haqida so‘rash, shuningdek majburiyatlar buzilgani uchun neustoyka (jarima, penya) qo‘llanishi natijasida xarajatlar summasi ortishi ehtimoli haqida ogohlantirish;

3.2.7. Shartnoma bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, kredit oluvchi bilan har qanday aloqa bog‘lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki boshqa usullardan foydalanib, kredit oluvchiga muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berish;

3.2.8. Garov predmeti sifatida qo‘yilgan birdan-bir turar joy faqat sud tartibida undirilishi mumkinligi va garov predmeti ommaviy savdolar orqali realizatsiya qilinishini(qonun hujjatlarida nazardan tutilgan hollar bundan mustasno) Kredit oluvchiga ma’lum qilish;

3.2.9. Mazkur shartnomaning 3.1.13- bandiga muvofiq kredit oluvchi/BKOning arizasi mavjud bo‘lmagan holda, kreditning joriy to‘lovi uchun kreditni qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushgan taqdirda, ushbu mablag‘ning ortiqcha qismini kreditning asosiy qarzini so‘ndirishga yo‘naltirish xamda kelgusi ish kunidan qoldiq summaga nisbatan foiz hisoblash;

3.2.10. Ushbu shartnoma amal qilish davrida kredit oluvchining so‘rovi olinganidan so‘ng bir ish kuni ichida unga quyidagi axborotlarni yozma shaklda oyda bir marta bepul taqdim etish: kreditlash limiti, kredit bo‘yicha to‘langan pul mablag‘lari summasi, asosiy summa bo‘yicha kredit qoldig‘i, navbatdagi to‘lovlarning miqdori, tarkibi va muddatlari (to‘lovlar jadvali), kreditni muddatidan oldin qisman yoki to‘liq so‘ndirish istagi bildirilgan taqdirda to‘lash lozim bo‘lgan summalar miqdori, muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik miqdori va tarkibi, kelib tushayotgan pul mablag‘lari kredit bo‘yicha kreditni so‘ndirishga yo‘naltirilishi haqida axborotlar;

3.2.11. Kredit oluvchi shartnoma bo‘yicha barcha to‘lov majburiyatini to‘liq bajargan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur kredit bo‘yicha garov mulkini taqiqdand chiqarish hamda garov mulkiga nisbatan bankning huquqlari to‘g‘risidagi yozuvni garov reestridan o‘chirish;

3.2.12. Shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, bu haqda tegishli qaror qabul qilingan sananing ertasidan kechikmasdan Kredit oluvchiga yozma xabarnoma yuborish;

3.2.13. Kredit shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan foiz stavkasi o‘zgarganda yoki mazkur shartnomaning 3.2.9.-bandida belgilangan vaziyat yuz bergan taqdirda, kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirish va kredit oluvchiga taqdim etish. Bunda, shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvali kuchini yo‘qotadi va taraflar uchun yangi qaytarish jadvali majburiy hisoblanadi.

4. Taraflarning huquqlari

4.1. Kredit oluvchi/birgalikda kredit oluvchining huquqlari.

- 4.1.1. O‘z huquq va majburiyatlari to‘g‘risida, shu jumladan ipoteka krediti berish bilan bog‘liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to‘liq axborot olish;
- 4.1.2. Kredit shartnoma tuzilgandan keyin va bank tomonidan kredit mablag‘lari ajratilgunga qadar bo‘lgan davrda kredit olishdan bepul asosda voz kechish, Bunda, voz kechish kunigacha qilingan xarajatlar Kredit oluvchi/BKO zimmasida qoladi;
- 4.1.3. Jarima sanksiyalarini undirmagan holda istalgan vaqtda kreditni muddatidan oldin so‘ndirish. Bunda, kredit uchun foizlar kredit to‘liq qaytarilgan kungacha qadar hisoblanadi;
- 4.1.4. Kredit ajratish va hisob-kitoblar bo‘yicha amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalaridagi o‘zgarishlar haqida Bankdan ma’lumot olish;
- 4.1.5. Bankdan majburiyatlarning o‘z vaqtida va lozim darajada bajarilishini talab qilish, majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarining o‘rnini qoplashni talab qilish;
- 4.1.6. Olingan kredit to‘lovlarini masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda amalga oshirish;
- 4.1.7. Sug‘urta yoki kreditni qaytarish turini (differensial va annuitet), shuningdek baholash xizmatlarini mustaqil tanlash;
- 4.1.8. Qarz oluvchida og‘ir hayotiy vaziyatlar, moliyaviy qiyinchiliklar yoki yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Qarz oluvchi Bankka ushbu Shartnoma shartlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar (restrukturizatsiya) kiritish imkoniyatini ko‘rib chiqish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilish. Bunda yuborilgan murojaat Bankning ichki qoidalarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi va amalga oshiriladi;
- 4.1.9. Homiladorlik va tug‘ish ta’tilida bo‘lgan Qarz oluvchilar Bank tomonidan belgilangan tartibda amaldagi kredit majburiyatlarini to‘lash muddatini o‘n oygacha uzaytirish to‘g‘risidagi ariza bilan Bankka murojaat qilish. Bu vaziyatlarda arizalar Bankning ichki qoidalarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi;
- 4.1.10. Ushbu shartnoma va qonunchilik hujjatlaridagi boshqa huquqlar.

4.2. Bankning huquqlari:

- 4.2.1 Kredit oluvchi shartnoma tuzilgan kundan e’tiboran bir oy ichida kreditdan foydalanmagan taqdirda, shartnomani bekor qilish haqida ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor etish orqali shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish;
- 4.2.2 Kredit berish va shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida va lozim darajada bajarishni talab qilish, zarur hujjatlarni Kredit oluvchi/BKODan so‘rab olish;
- 4.2.3 Ipoteka kreditlari, ipoteka shartnomasi bo‘yicha talab qilish huquq(lar)idan yoki ta’minot yuzasidan talab qilish huquq(lar)idan O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi AJ foydasiga voz kechish;
- 4.2.4 O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi AJdan Bankka mazkur shartnoma yuzasidan majburiyatlarni bajarmaslik to‘g‘risidagi xabarnoma yoki Bankning talab qilish huquq(lar)ini o‘tkazish to‘g‘risida talabnoma olgan taqdirda, Bank ushbu shartnoma amal qilish muddati davomida istalgan vaqtda mazkur shartnoma bilan bog‘liq hujjatlarning asl nusxalarini mijozning yozma murojaatiga asosan taqdim etish;
- 4.2.5 Mazkur shartnoma bo‘yicha ajratilgan ipoteka krediti qayta moliyalashtirilgunga qadar, O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi AJ tomonidan shartlar o‘zgartirilgan taqdirda, yangi shartlarda ipoteka krediti ajratiladi va qo‘shimcha kelishuv shartnoma rasmiylashtiriladi.
- 4.2.6 Garov mulkining holati, saqlanishi va maqsadlilik bo‘yicha tekshiruvlarni amalga oshirish;
- 4.2.7 Taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyiligiga shubha tug‘ilganida, monitoring o‘tkazish maqsadida, shuningdek muddati o‘tgan qarzdorliklar yuzaga kelgan taqdirda, Kredit oluvchi/BKOlarga qo‘ng‘iroq qilish yoki yozma murojaat berish;

4.2.8 O‘zaro muzokaralarni (bayonnoma shaklida, telefon qo‘ng‘iroqlari, audio, video va boshqa istalgan usullarda) yozib olish, shuningdek ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda murojaatni tasdiqlash uchun ushbu dalilni ishlatish;

4.2.9 Kredit oluvchining joriy yoki muddati o‘tgan majburiyatlari (qarzlarini)ni so‘ndirish maqsadida, mablag‘larni quyidagi usullar yordamida hisobdan chiqarish:

a) Kredit oluvchi/BKOning har qanday banklarda va boshqa moliya muassasalaridagi hisobvaraqlariga akseptsiz to‘lov talablarini qo‘yish;

b) Kredit oluvchi/BKOning Bankdagi bank hisobvaraqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri debetlash yo‘li bilan.

4.2.10. Ipoteka bilan ta‘minlangan majburiyat bo‘yicha o‘z huquqlarini garov xati bilan tasdiqlanishini ipotekaga qo‘yuvchidan talab qilish;

4.2.11. Kredit oluvchi (BKO) tomonidan yolg‘on tasdiqlar va kafolatlar berilganligi, ko‘rsatilgan reestrda (ro‘yxatda) bo‘lganligi haqidagi ma‘lumot yashirilganligi yoki ushbu Shartnoma tuzilgan paytda (ya‘ni, Bank tomonidan dastlabki tekshiruvlar o‘tkazilgandan so‘ng, lekin Shartnoma imzolangunga qadar) shunday reestrda (ro‘yxatga) kiritilganligi asosi bilan aniqlangan taqdirda Bank tomonidan shartnoma muddatidan oldin bekor qilish va jarima sanksiyalarini qo‘llash;

4.2.12. Shartnoma shartlaridan biri bajarilmaganligi va hujjatlar taqdim etilmaganligi oqibatida shartnoma bekor bo‘lgan holda ipoteka kreditidan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlar, kredit mablag‘larini akkreditiv hisobvaraqa o‘tkazish paytidan boshlab bitim bekor bo‘lgan paytga qadar Kredit oluvchidan undirish. Kredit mablag‘larini akkreditiv hisobvaraqdan qaytarish bo‘yicha teskari buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi va hisoblangan foizlari Kredit oluvchi boshlang‘ich badali xisobidan qoplash;

4.2.13. Kredit ajratish kunida Kredit oluvchining ASOKIsini olgan holda qarz yukini qayta hisob-kitob qilish, hisob-kitob natijasiga asosan Kredit oluvchi to‘lov qobiliyati yetarli emas deb topilsa kredit ajratishni rad etish yoki kredit miqdorini kamaytirish;

4.2.14. Garov shartnomasiga asosan garov obyektga taqiq qo‘yish hamda qo‘yilgan taqiqlarni bekor qilish uchun kredit oluvchidan bank tarif(Bosh tarif)larigagi miqdorda xizmat haqi undirish;

4.2.15. **Ajratilgan kredit qayta moliyalashtirgunga qadar (6-12 oy) davomida oylik to‘lovlari 30 kundan o‘tkazib yuborilgan holatlarda kredit foiz stavkasi bank o‘z mablag‘lari foiziga o‘zgartirish va sog‘lomlashtirish davri bank o‘z mablag‘i foiz stakasida foiz hisoblash;**

4.2.16. Ushbu shartnoma va qonunchilik hujjatlaridagi boshqa huquqlar.

5. Taraflar javobgarligi:

5.1. Kredit oluvchi/ birgalikda kredit oluvchining javobgarligi.

5.1.1 Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda, Bankka butun kechiktirilgan muddat davomida kechiktirilgan to‘lovlar uchun Alohida shartlarda belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravari miqdorida oshirilgan foiz to‘laydi.

5.1.2 Kredit mablag‘lari hisobiga sotib olingan mulk shartnomada belgilangan muddatda garovga qo‘yilmagan yoki tegishli hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, shuningdek, mazkur shartnoma talablari bajarmaganida Bankka har bir muddati o‘tkazib yuborilgan kun uchun garov summasining 0.1 foizi miqdorida penya to‘laydi.

5.1.3 Kreditdan maqsadsiz foydalanilganligi aniqlanganida, maqsadsiz foydalanilgan kredit miqdorining 25% miqdorida bankka jarima to‘lash bilan birga maqsadsiz ishlatilgan kredit mablag‘ini Bankka muddatidan oldin qaytaradi.

5.2 Bankning javobgarligi.

5.2.1. Kredit mablag‘larini berish majburiyatini bajarmaganida yoki o‘z vaqtida bajarmaganida Kredit oluvchiga kechiktirilgan to‘lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,1%i miqdorida penya to‘laydi.

5.2.2. Kredit oluvchi mazkur shartnoma bo‘yicha barcha majburiyatlarini to‘liq bajargach, Bank ushbu shartnomadagi majburiyatlarini o‘z vaqtida yoki to‘liq bajarmagan taqdirda, kechiktirilgan har bir kun uchun garovga olingan mulk qiymatining 0,1 foizi miqdorida penya to‘laydi.

5.2.3. Shartnoma bo’yicha hisoblangan penya va jarimalarni to’lash/yoki ixtiyoriy to’lash, taraflarni shartnomada ko’rsatilgan o’z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Shuningdek, ikkinchi tarafni majburiyatlar bajarilmaganligi sababli tegishli choralar qo’llash huquqidan mahrum qilmaydi.

5.2.4. Qarzдорlik bo’yicha hisoblangan foizlar va neustoykalarining eng ko’p summasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdordan oshib ketmasligi lozim.

5.2.5. Garovga qo’yilgan kvartira Kredit oluvchining g’ayri qonuniy qilmishlari oqibatida xatlansa Kredit oluvchi Bankni 3 (uch) kun mobaynida xabardor qiladi. Kredit oluvchi o’z vaqtida Bankni ushbu holat bo’yicha habardor qilmasa, Bank oldidagi majburiyatlardan ozod etilmaydi.

6. Kredit ta’minoti.

6.1. Kreditning asosiy ta’minoti kredit hisobiga sotib olinayotgan uy-joy/kvartira hisoblanadi. Garov sug’urtalanib, sug’urta shartnomasi va sug’urta polisi bankka Kredit oluvchi tomonidan taqdim etiladi.

6.2. Kredit hisobiga sotib olinadigan uy-joy/kvartira garov shartnomasi yozma (notarial yoki bank) orqali tuziladi. Har ikkala holatda ham garov mulki bo’yicha garov reestriga yozuvlar kiritiladi va garov mulkiga nisbatan taqiq qo’yiladi.

7. Shartnomaning amal qilish muddati, shartnomani o’zgartirish va bekor qilish tartibi hamda boshqa qoidalar.

7.1. Shartnoma taraflar imzolagan kundan e’tiboran kuchga kiradi va taraflar o’z majburiyatlarini to’liq bajargunlariga qadar amalda bo’ladi.

7.2. Ushbu shartnomaning shartlarini o’zgartirish yoki uni bekor qilish qo’shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har qanday o’zgartirish va qo’shimchalar yozma ravishda tuzilib, taraflarning vakolatli vakillari imzolaganidan so’ng haqiqiy hisoblanadi. Barcha o’zgartirish, qo’shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo’lib hisoblanadi.

7.3. Quyidagi asoslar yuzaga kelganida, Bank mazkur shartnomani muddatidan oldin bekor qilish/undiruvni garovdagi yoki boshqa likvidli mol-mulklarga qaratishi mumkin:

a) Kredit oluvchi tomonidan shartnoma tuzishda yoki kredit operatsiyalarini bajarish vaqtida Bankka noto’g’ri ma’lumotlar taqdim etish faktlari aniqlanganda;

b) Kredit oluvchi/BKOning psixo-nevrologik dispanserlariga, psixiatrik klinikalarga, giyohvandlik va alkogolizmdan davolanish klinikalariga joylashtirilishi to’g’risida ma’lumot olingan taqdirda;

c) kreditni qaytarish jadvalini kamida uch va undan ortiq marotaba buzgan taqdirda;

d) kredit va unga hisoblangan foizlarni kreditni qaytarish jadvalida belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga sababsiz kechiktirilganida;

e) Mazkur shartnomada belgilangan, kredit hisobiga sotib olingan uy-joy/kvartiraning o’z muddatida sug’urtalanib, garovga taqdim etilmaganida;

f) Kredit oluvchi/BKO garovga olingan uy-joy/kvartirani monitoring qilinishiga to’sqinlik qilganida.

g) Kredit oluvchi garovga olingan kvartirani Bankning rozilgisiz uchinchi shaxslarga ijaraga, tekin foydalanishga, boshqa har qanday asoslarga ko’ra bersa, shuningdek, noqonuniy ravishda tasarruf etsa;

h) Bank tomonidan yuqoridagi asoslarga ko’ra, kreditni muddatidan oldin to’liq qaytarish talabi asosida undiruvni kredit oluvchi xisobidan va kredit ta’minotiga qaratish yuzasidan tegishli sudga ariza/da’vo ariza bilan murojaat qilingan hollarda, sud muhokamalariga qadar yoki sud muhokamalari jarayonida kredit oluvchi tomonidan muddati o’tgan kreditni to’lab qo’yishligi da’vogar (bank) tomonidan da’voni qaytarib olishga yoki da’vodan voz kechishga asos bo’lmaydi; Kredit oluvchi(BKO)ni Bank kredit ajratishdan avval mavjud bank kartalarini “Avto-to’lov” xizmatiga ulashdan bosh tortganda;

- i) Kredit oluvchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.1.6-bandi va 3.1.7-bandi ijrosi ta’minlamagan taqdirda;
- j) Qonunchilikda belgilangan boshqa asoslarga ko’ra.

8. Mahfiylik.

8.1 Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma’lumotlar mahfiy axborotlar deb tan olinadi.

8.2 Taraflar shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog’ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan mahfiy axborotlar va ma’lumotlarni axborot egasining yozma rozilgisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

8.3 Mazkur talab shartnomaning amal qilish muddatiga hamda shartnoma muddati tugagan vaqtdan boshlab 3 yil mobaynida amal qiladi.

8.4 Ushbu talablarni buzgan taraf buning oqibatida ikkinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni to’liq xajmda qoplaydi.

9. Alohida shartlar, kafolatlar va bildirishlar

9.1 Mazkur shartnomani imzolash bilan Kredit oluvchi Bankka uning shaxsiy ma’lumotlarini yig’ish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanishga quyidagi hollarda rozilik beradi: Kredit oluvchi manfaatdor bo’lgan shartnomalarni tuzishda va ijrosini ta’minlashda; Kredit oluvchining shartnomada belgilangan huquqlari va majburiyatlarining bajarilishini ta’minlashda, ularning bajarilishini talab qilish va qarzdorlikni undirishda; ma’lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlik holatlarini oldini olish maqsadida; shartnomaning ijrosini ta’minlash bilan bog’liq ma’lumotlarni Kredit oluvchi/BKOga yetkazishda.

9.2 Ushbu bilan Kredit oluvchi/BKO to’lov jadvali asosida kredit to’lovi bo’yicha telefon qo’ng’iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarni uyali telefon raqamlariga, shuningdek Kredit oluvchi tomonidan taqdim etilgan boshqa manzillarga (rekvizitlarga), barcha aloqa vositalaridan foydalangan holda yuborilishiga rozilik beradi.

9.3 Bank tomonidan yuborilgan SMS xabarnomalar, qilingan qo’ng’iroqlar, yuborilgan ogoxlantirish xatlari va boshqalar kreditni qaytarishning zarur choralari bo’lib, sud va boshqa organlarda dalil bo’lib xizmat qiladi.

9.4 Mijozga bank xizmatini taklif qilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so’ng 3 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma’lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o’tkazishga mijoz o’z roziligini beradi.

10. Fors-major

10.1 Yengib bo’lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishi va faoliyatlariga bog’liq bo’lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko’chki, bo’ron, qurg’oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko’zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to’lov hamda ta’minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta’minot tizimiga qilingan tahdid (uchinchi shaxslar tarafidan qilingan hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo’lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

10.2 Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo’yicha o’zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo’ladilar.

10.3 Yuzaga kelgan Fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab 3 bank ish kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

10.4 Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar taraflarda mavjud bo’lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

10.5 Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo’ladilar.

11. Alohida shartlar

11.1 Ushbu shartnomaga o’zgartirishlar taraflarning yozma kelishuvlariga asosan amalga oshiriladi.

11.2 Kredit oluvchi Bank oldidagi barcha majburiyatlarni bajargan taqdirda, Bank notariusga (bundan birlamchi bozordan ko’chmas mulk olish chog’idagi ipoteka shartnomasi mustasno) va boshqa organlarga garov mulkiga solingan taqiqni bekor qilish uchun yozma xabar beradi.

11.3 Monitoring, joyiga chiqib ishni o’rganish ishlari yozma ravishda rasmiylashtirib olib boriladi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish

12.1 Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tarafning qaror qabul qilishiga ta’sir o’tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag’lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi. Ana shunday taklif bildirilganida, ikkinchi taraf, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari bunday takliflarni rad qilishi shart.

12.2 Agar shartnoma ishtirokchilaridan birida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog’liq korrupsion harakat sodir etilganligi to’g’risida ma’lumot, shubha, shubhaga asos bo’luvchi dalilga ega bo’lsa, bu to’g’risida ikkinchi tarafga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

12.3 Xabarni olgan taraf haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to’g’risida tasdiqqa ega bo’lgunicha ushbu shartnoma bo’yicha o’z majburiyatlarini bajarishni to’xtatib turish huquqiga ega.

12.4 Pora evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o’ziga og’dirib olgan taraf ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

13. Nizolarni hal etish tartibi va boshqa shartlar.

13.1 Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo’li bilan hal etadilar.

13.2 O’zaro kelishuv imkoniyati bo’lmaganda, huquqi buzilgan taraf yuborgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur hujjatlarda ko’rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

13.3 Talabnoma yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirilishi, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali yuborilishi mumkin.

13.4 Tinch yo’l bilan hal etilmagan nizolar bank tarmog’i joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

13.5 Mazkur shartnoma va uning ilovasi bir xil yuridik kuchga ega bo’lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Kredit oluvchida saqlanadi.

14. YAKUNIY QOIDALAR

14.1. Kredit ajratishning ushbu umumiy shartlari hamda kredit ajratishning alohida shartlari (kreditning umumiy va alohida shartlari) bilan birga yagona kredit shartnoma hisoblanadi. Kredit ajratishning alohida shartlari taraflar tomonidan imzolanganidagina umumiy shartlar + alohida shartlar bo’yicha huquq va majburiyatlar vujudga keladi. Shu bilan birga yagona kredit shartnomasi bilan tartibga solinmagan munosabatlar amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinadi.

14.2. Kredit ajratish to’g’risida ijobiy qaror qabul qilingandan so’ng, biroq kredit shartnomasi rasmiylashtirilishidan oldin, Kredit oluvchiga kredit majburiyatlari bilan bog’liq ehtimoliy tavakkalchiliklar to’g’risidagi ilovada keltirilgan shakldagi cheklistni taqdim etiladi.

14.3. Ushbu shartnoma faqat Qarz oluvchi ehtimoliy tavakkalchiliklarning nazorat ro’yxatidagi barcha bandlar bilan tanishganligini tasdiqlaganidan keyin tuzilgan hisoblanadi va kuchga kiradi.

14.4. Ushbu Shartnoma bo’yicha qarzdorlikni undirish davlat tomonidan fuqarolarga ajratiladigan ijtimoiy nafaqa va yordam mablag’lari, shu jumladan ijtimoiy karta hisobvarag’iga kelib tushadigan mablag’lar hisobidan amalga oshirilishi mumkin emas, qonunchilikda to’g’ridan-to’g’ri nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

14.5. Mazkur shartnoma rasmiylashtirilishi Qarz oluvchi ushbu Shartnoma shartlarini, uning barcha bo‘limlari va ilovalari bilan to‘liq tanishganligini tasdiqlaydi.

15. BANK MANZILI VA REKVIZITLARI

To‘liq nomi: Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki.

Markaziy bankning 2021-yil 25-dekabrdagi 64-sonli litsenziyasi.

Yuridik manzil: 170119, Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi, 85-uy.

E-mail: @hamkorbank.uz Bank rekvizitlari:

STIR: 200242936

Telefonlar: 0 (800) 1 200 200; 1809 (pullik), +998 (78) 150 91 25.

Kredit rasmiylashtirishdan oldin to’ldiriladigan

CHEKLIST

Kredit shartnomasini rasmiylashtirishdan avval, ushbu ro’yxatni diqqat bilan o’qib chiqing va har bir bandni tushunganingizni tasdiqlang. Bu sizni kelgusida kutilmagan moliyaviy qiyinchiliklardan saqlanishingiz uchun xizmat qilishi mumkin.

1.	Kredit — bu xarajat.	<i>Kredit — bu men to’lashim shart bo’lgan moliyaviy majburiyatdir. Kreditning asosiy summasidan tashqari, kredit bo’yicha hisoblangan foizlarni, shuningdek, ehtimol, kredit bilan bog’liq boshqa xarajatlarni (sug’urta, kredit to’lovlarini amalga oshirish xarajatlari va boshqalar) ham to’lashimga to’g’ri keladi.</i>
2.	Kreditni qaytarish jadvalini diqqat bilan o’rganib chiqdim.	<i>Kreditni qaytarish jadvalidagi barcha sanalar va to’lov miqdorlari hamda ushbu to’lovlarni amalga oshirish usullari bilan tanishdim. Mazkur jadvalga muvofiq har oyda qachon va qancha miqdorda to’lovlar to’lashim kerakligini tushundim hamda ularni o’z vaqtida bajara olaman.</i>
3.	Daromadlarim kredit to’lovlarini to’lash imkonini beradi.	<i>Mazkur kreditni olishda men oylik daromadim va doimiy xarajatlarimni (boshqa kreditlarim, ijara, kommunal xizmatlar, transport va boshqa xarajatlarni), shuningdek kredit bo’yicha o’z majburiyatlarimni bajara olmasligimga olib kelishi mumkin bo’lgan yengib bo’lmas kuch ta’siridagi vaziyatlar (holatlar)ni yuz berishi ehtimolini (ishimni yo’qotish, ish haqi va boshqa daromadlarni kechikishi, sog’ligimning yomonlashishi) inobatga oldim.</i>
4.	Kredit to’lovlarini kechiktirish oqibatlaridan xabardorman.	<i>Kredit to’lovlarini o’z vaqtida amalga oshirmasam, bank tomonidan ushbu qarzdorlik bo’yicha tegishli jarima va penyalar belgilanishini, shuningdek, agar kredit qarzdorligi sud orqali undirilsa, mazkur sud xarajatlarini ham to’lashim mumkinligini tushundim. Bundan tashqari, kredit tariximda majburiyatlar o’z vaqtida bajarilmagani to’g’risida ma’lumotlar aks ettirilishi, bu esa kelgusida moliyaviy tashkilotlardan kredit olish imkoniyatimni pasayishiga va/yoki noqulay shartlarda kredit olishimga sabab bo’lishi mumkinligini bilaman.</i>
Imzo (qog’oz shaklda): Tasdiqlayman _____ Kredit oluvchi FISH (imzo)		
Elektron shaklda (onlayn): “Tasdiqlayman” tugmasi bosiladi.		
Sana: _____. (kun /oy /yil)		